



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG'I**

2024 yil "9" aprel 02115-edo - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'sis etilgan nomli stipendiyalar va turli
nominatsiyalar tanlovini o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldag'i "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-sonli va 2021-yil 9-sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiytadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-6309-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 222-sonli qarori, Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rnlarda - TTA) Ilmiy Kengashining 2021-yil 24-noyabrdagi 4-sonli, 2022-yil 30-avgustdag'i 1-sonli va 29-noyabrdagi 4-sonli yig'ilish qarorlari ijrosini ta'minlash hamda TTAda tahsil olayotgan qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash va munosib taqdirlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. TTA bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar, klinik ordinatator va doktorantlar o'rtasida "Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'sis etilgan nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovini o'tkazish va ularni tayinlash tartibi to'g'risida"gi Nizom (keyingi o'rnlarda – Nizom) 1-ilovaga muvofiq va 2023/2024 o'quv yili uchun TTAda ta'sis etilgan nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar bo'yicha to'lov miqdorlari va ular tayinlanadigan g'oliblarning soni 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I. Do'stmurodov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'aipov va Bosh buxgalter B.I. Alijanova:

- har yili TTA xarajatlar smetasini tuzishda tasdiqlangan Nizomga muvofiq iqtidorli talabalarni taqdirlash va moddiy rag'batlantirish uchun zarur mablag'larni nazarda tutsin.

3. 2023/2024-o'quv yili uchun Nizomda belgilangan TTAda ta'sis etilgan nomli stipendiyalar va turli nominatsiyalar tanlovi (keyingi o'rnlarda – Tanlov) joriy yilning 1-mayidan 20-may kuniga qadar TTA bakalavriat, magistratura, klinik ordinatatura va doktorantura bosqichida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida o'tkazilsin.

4. TTA bakalavriat va magistratura talabalari, klinik ordinator va doktorantlar orasidan Tanlov g'oliblarini aniqlash yuzasidan tanlovlarni o'tkazish uchun Yoshlar masalalari va ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovalar mas'ul etib belgilansin.

5. Barcha fakultet dekanlari, magistratura va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A. Imamov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A. Muminova va kafedra mudirlari TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilar hamda bakalavriat va magistratura talabalari, klinik ordinator va doktorantlar mazkur Nizom bilan tanishtirilsin.

6. TTA bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar, klinik ordinator va doktorantlar orasidan Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'sis etilgan nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar g'oliblarini aniqlash bo'yicha maxsus tanlov komissiyasi (keyingi o'rinnlarda - Maxsus tanlov komissiya) tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova:

TTA bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar, klinik ordinator va doktorantlar o'rtasida Tanlov yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar yuzasidan 5 kun muddatda TTA rektoriga hisobot topshirsin;

TTA bakalavriat va magistratura talabalari, klinik ordinator va doktorantlar o'rtasida Tanlov yakunlanganidan so'ng Maxsus tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra g'olib deb topilgan talabalar bir hafta mobaynida Nizomda belgilangan tartib va miqdorda rag'batlantirish to'g'risida buyruq loyihasi TTA rektoriga taqdim etilishini ta'minlasin.

8. Matbuot kotibi G.T. Mirzayeva:

Tanlov jarayonlari va iqtidorli talabalarning o'z ma'nnaviy, kasbiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi yutuqlarini ommaviy axborot vositalari hamda TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida muntazam ravishda keng yoritib borsin.

9. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorining 2023-yil 1-maydag'i "Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'sis etilgan nomli stipendiyalar va turli nominatsiyalar tanlovini o'tkazish to'g'risida"gi 00596-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:

F.Abdumalikova

Bo‘lim boshlig‘i

Kelishildi:

T.Bobomuratov **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha prorektor**

F.Azizova **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor**

S.Dustmuradov **Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor**

O.G'aipov **Bo‘lim boshlig‘i**

B.Alijanova **Bosh buxgalter**

S.Yusupova **Bo‘lim boshlig‘i**

**Toshkent tibbiyot akademiyasida ta’sis etilgan nomli stipendiyalar hamda turli
nominatsiyalar tanlovini o’tkazish va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli va 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 222-sonli qaroriga muvofiq Toshkent tibbyoit akademiyasida (keyingi o‘rinlarda - TTA) tahsil olayotgan qobiliyatli yoshlarni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, TTA Ilmiy Kengashining 2021-yil 24-noyabrdagi 4-sonli, 2022-yil 30-avgustdagli 1-sonli va 29-noyabrdagi 4-sonli yig‘ilish qarorlari bilan tasdiqlangan bakalavriat, magistratura, klinik ordinatura va doktorantura bosqichi talabalari uchun Sog‘liqni saqlash vaziri, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri, TTA rektori va tibbiyot sohasida faoliyat yuritgan atoqli olimlar nomidagi stipendiyalarini hamda turli nominatsiyalar bo‘yicha bir martalik rag‘batlantirishni tayinlash tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom Toshkent tibbiyot akademiyasi Zulfiya nomidagi stipendiyasini tayinlash tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri stipendiyasi ta’lim bosqichiga o‘qishga kirgandan boshlab umumiyligi reyting nazorati natijalari 86 ball va undan yuqori to‘plagan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, davlat tilini mukammal darajada va O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan, ilmiy-innovatsion tanlovlarda loyihalari bilan faol ishtiroy etayotgan, ilmiy ishlanmalar va maxsulotlar bo‘yicha mualliflik egasi, ilmiy nashr faoliyatiga ega, yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, respublika va xalqaro fan olimpiyadalarida g‘olib bo‘lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, TTAda olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda hissa qo‘shayotgan, jamoat ishlari va sport tadbirlarida faol ishtiroy etib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan 1 (bir) nafar TTAda bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursi bo‘lmagan 3-, 4- yoki 5-kurs talabasi, 1 (bir) nafar magistratura va klinik ordinatura bosqichi bitiruvchi kurs bo‘lmagan 1- yoki 2-kurs talabasi hamda 1 (bir) nafar doktorantura bosqichi bitiruvchi kurs bo‘lmagan talabasiga tayinlanadi va to‘lanadi.

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri stipendiyasi sovrindorlari tanlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patentiga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi ta'lif bosqichiga o'qishga kirgandan boshlab umumiyl reyting nazorati natijalari 86 ball va undan yuqori to'plagan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan, muntazam ravishda ilmiytadiqot ishlarini olib borayotgan, ilmiy nashr faoliyatiga ega, yo'naliishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, malaka oshirish, stajirovka va trening kurslarini o'tgan va kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, TTAda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda hissa qo'shayotgan, jamoat ishlari va sport tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan 1 (bir) nafar TTAning bakalavriat bosqichining bitiruvchi kurs bo'limgan 3-, 4- yoki 5-kurs talabasi, 1 (bir) nafar magistratura va klinik ordinatura bosqichi bitiruvchi kurs bo'limgan 1- yoki 2-kurs talabasi hamda 1 (bir) nafar doktorantura bosqichi bitiruvchi kurs bo'limgan talabasiga tayinlanadi va to'lanadi.

Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi sovrindorlari tanlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patentiga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

TTA rektori stipendiyasi ta'lif bosqichiga o'qishga kirgandan boshlab umumiyl reyting nazorati natijalari 80 ball va undan yuqori to'plagan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadiqot ishlarini olib borayotgan, ilmiy nashr faoliyatiga ega, yo'naliishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, TTAda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda hissa qo'shayotgan, jamoat ishlari va sport tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan 1 (bir) nafar TTAning bakalavriat bosqichining bitiruvchi kurs bo'limgan 3-, 4- yoki 5-kurs talabasi, 1 (bir) nafar magistratura va klinik ordinatura bosqichi bitiruvchi kurs bo'limgan 1- yoki 2-kurs talabasi hamda 1 (bir) nafar doktorantura bosqichi bitiruvchi kurs bo'limgan talabasiga tayinlanadi va to'lanadi.

TTA rektori stipendiyasi sovrindorlarini tanlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patentiga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy nomidagi stipendiya ta'lif bosqichiga o'qishga kirgandan boshlab umumiyl reyting nazorati natijalari 71 ball va undan yuqori to'plagan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa

insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, davlat tilini mukammal darajada va O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, muntazam ravishda ilmiy-tadiqot ishlarini, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini olib borayotgan, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligiga ega ixtirolarni ishlab chiqqan va tadbiq etayotgan, ilmiy-innovatsion tanlovlarda loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan, grant va start-up loyihalari muallifi yoki ishtirokchisi, ixtiro, kashfiyat, ilmiy ishlanmalar va maxsulotlar bo‘yicha mualliflik egasi, innovatsion yarmarkalar va ko‘rgazmalarda o‘z ixtiro loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan, ilmiy nashr faoliyatiga ega, yo‘nalishlar bo‘yicha konferentsiya (tanlov)larda qatnashib kelayotgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan 1-son davolash va 2-son davolash fakultetlari bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘limgan 2-, 3-, 4- yoki 5-kursida tahsil olayotgan 2 (ikki) nafardan talabasi, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti hamda Xalqaro fakultetlar bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘limgan 2-, 3-, 4-yoki 5-kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafar talabasi, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘limgan, 2-, 3-, 4-kursida tahsil olayotgan hamda Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliv ma’lumotli hamshira fakulteti bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘limgan 2- va 3-kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafar talabasi, magistratura va klinik ordinatura bosqichining bitiruvchi kurs bo‘limgan 1-yoki 2-kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafar talabasi hamda doktorantura bosqichi bitiruvchi kurs bo‘limgan 1-yoki 2-kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafar talabaga tayinlanadi va to‘lanadi.

Akademik Vosit Voxidovich Voxidov, Akademik Uktam Aripovich Aripov, Akademik Nabi Majidovich Majidov, Akademik Komiljon Ahmadjonovich Zufarov, Akademik Malika Samatovna Abdullaxo‘jaeva, Akademik Turg‘unpo‘lat Obidovich Daminov, Yolqin Xolmatovich To‘raqulov, Nosir Ismoilovich Ismoilov, Jalol Nasirovich Maksumov, Jahongir Xakimovich Xamidov, Raximjonov Abdumannap Raxmonovich, Rafael Aleksandrovich Katsenovich nomidagi stipendiyalar (keyingi o‘rinlarda – **Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar**) ta’lim bosqichiga o‘qishga kirgandan boshlab umumiyl reyting nazorati natijalari 75 ball va undan yuqori bo‘lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, munatazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, ushbu Nizomda nomlari ko‘rsatilgan akademiklar faoliyat yuritgan tor yo‘nalishlar bo‘yicha turli konferentsiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan, TTAda ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirayotgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan bakalavriat (1-bosqichda tahsil olayotgan talabalar bundan mustasno), magistratura va klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi bitiruvchi kurs bo‘limgan talabalarga mazkur Nizom ilovasida keltirilgan TTAda ta’sis etilgan nomli stipendiyalarga ajratilgan kvotalar soniga muvofiq tayinlanadi va to‘lanadi.

Mazkur Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar sovrindorlarini tanlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikat

hamda kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

Professor Ergash Isabayevich Ataxanov, Zulfiya Ibragimovna Umidova, Mannap Atamatovich Mirzamuxammedov, Sattar Nazimovich Babajanov, Akram Ibragimovich Mo'minov, Radik Abdullaevich Kapkayev, Xudoyor Alimovich Alimov, Najiyo'lla Habibullayevich Shomirzayev, Marat Xikmatovich Kariyev, Erkin Yuldashevich Kasimov, Bashir Xikmatullayevich Magzumov, Ataulla Turaxanovich Akilov, Iskhak Kamilovich Kamilov nomidagi stipendiyalar (keyingi o'rirlarda – **Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar**) ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiylar reyting nazorati natijalari 71 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, munatazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, ushbu Nizomda nomlari ko'rsatilgan akademiklar faoliyat yuritgan tor yo'naliishlar bo'yicha turli konferentsiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, TTAda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirayotgan, jamaot ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan bakalavriat (1-bosqichda tahsil olayotgan talabalar bundan mustasno), magistratura va klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi bitiruvchi kurs bo'lмаган talabalarga mazkur Nizom ilovasida keltirilgan TTAda ta'sis etilgan nomli stipendiyalarga ajratilgan kvotalar soniga muvofiq tayinlanadi va to'lanadi.

Mazkur Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar sovrindorlarini tanlashda jamaoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikat hamda kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

3. Erudit (bilimdon) nominatsiyasi bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga kirgandan boshlab umumiylar reyting nazorati natijalari 70 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni hisqiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, munatazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, keng dunyoqarash va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, tashabbuskor, ilmiy-innovatsion izlanishlarni olib boradigan, yo'naliishlar bo'yicha turli konferentsiya (tanlov)larda faol qantashib kelayotgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, TTAda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirayotgan, jamaot ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat bosqichining 3-, 4-, 5- yoki 6-kurs va magistratura, klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi talabalarini g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

Erudit (bilimdon) nominatsiyasi bo'yicha g'olibni aniqlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lган talabalarga ustuvorlik beriladi.

Poliglot (ko'p til biluvchi) nominatsiyasi bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga kirgandan boshlab umumiyligi reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo'lган, fidoyi, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lган, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, ikki va undan ortiq chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini biladigan hamda ulardan birini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lган, yo'nalishlar bo'yicha turli konferentsiya (tanlov)larda chet tilida ilmiy ma'ruzalar va/yoki poster-taqdimotlar bilan qantashib kelayotgan, ilmiytadqiqot faoliyati natijalari to'g'risida xorijiy yoki mahalliy ilmiy jurnallarda chet tillarida maqola chop etgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura, klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

Poliglot (ko'p til biluvchi) nominatsiyasi bo'yicha g'olibni anqilashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lган, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lган talabalarga ustuvorlik beriladi.

Biblioman (kitobxon) nominatsiyasi bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga kirgandan boshlab umumiyligi reyting nazorati natijalari 70 ball va undan yuqori bo'lган, fidoyi, keng dunyoqarashga ega bo'lган, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lган, ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etayotgan, TTAda ma'naviy-ma'rify va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga hissa qo'shayotgan, kitobxonlik tanlovlarida faol ishtirok etib kelayotgan, turli nashrlar muallifi va hammuallifi bo'lган, jahon klassikasi va milliy adabiyot durdona asarlarini o'qib mutoala qiladigan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

Biblioman (kitobxon) nominatsiyasi bo'yicha g'olibni aniqlashda jamoa tartibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lган, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lган hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lган, talabalarga ustuvorlik beriladi.

Sog'lom turmush tarzi targ'ibotchisi nominatsiyasi bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga kirgandan boshlab umumiyligi reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo'lган, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darjada va O'zbekiston tarixini yaxshi

biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida sog‘lom turmush tarzini targ‘iboti bo‘yicha ilmiy loyihalar va ma’ruzalar bilan konferensiya (tanlov)larda ishtirok etib kelayotgan, sport mashg‘ulotlari to‘garaklarini tashkillashtirish hamda zararli odatlarga qarshi tadbirlarni tashkil qilish va tarqibot qilishda faoliyat yuritayotgan, ratsional ovqatlanish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish to‘g‘risida takliflari va/yoki ilmiy ishlanmalar ni nashr qilingan, jamoat ishlari va sport tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o‘n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura, klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi talabalari g‘olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantirish to‘lovi tayinlanadi.

Sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotchisi nominatsiyasi bo‘yicha g‘olibni aniqlashda jamoa tartibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalari g‘olib hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

Yosh tadqiqotchi nominatsiyasi bo‘yicha ta’lim bosqichiga o‘qishga kirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo‘lgan, fidoyi, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, keng dunyoqarash va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, ilmiy-innovatsion g‘oyalarini targ‘ib etuvchi, ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida ilmiy ishlanmalar, startap-loyihalar muallifi bo‘lgan, jamoa tartibida yoki yakka tartibda mualliflik guvohnomasi yoki ixtiro patentiga ega bo‘lgan, innovatsion yarmarkalar va ko‘rgazmalarda o‘z tadqiqot loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan, ilmiy-amaliy konferentsiya (tanlov)larda ma’ruzalar bilan qantashib kelayotgan, ilmiy nashrlarda tezis va maqolalar chop etgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o‘n) nafar TTAning bakalavriat bosqichi 3-, 4-, 5- yoki 6-kurs talabalari va magistratura, klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi talabalari g‘olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantirish to‘lovi tayinlanadi.

Yosh tadqiqotchi nominatsiyasi bo‘yicha g‘olibni aniqlashda respublika va /yoki xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

Ijodkor talaba nominatsiyasi bo‘yicha ta’lim bosqichiga o‘qishga kirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo‘lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yo‘lida xizmat qilib kelayotgan, o‘z mutaxassisligidan tashqari “besh muhim tashabbus” doirasidagi adabiyot, rassomchilik, kompyuter savodxonligi, san‘at va teatr sohasidagi ijodi bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etayotgan, ijodiy yo‘nalishda alohida iqtidor egasi hamda tashabbuskor bo‘lgan, TTAda o‘tkaziladigan

ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlarni OAVlari va TTA rasmiy veb-saytlarida yoritib borayotgan, jamoat ishlari va ijodiy tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o’n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura, klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi talabalari g‘olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantirish to‘lovi tayinlanadi.

Ijodkor talaba nominatsiyasi bo‘yicha g‘olibni aniqlashda respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalar hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

Ixtirochi-innovator nominatsiyasi bo‘yicha ta’lim bosqichiga o‘qishga qirgandan boshlab umumiyligi reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo‘lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, muntazam ravishda ilmiy ishlarda ishtirok etayotgan, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligiga ega ixtirolarni ishlab chiqqan va tadbiq etayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida ilmiy ishlanmalar, startap-loyihalar, yakka tartibda mualliflik guvohnomasi yoki ixtiro patentiga ega bo‘lgan, innovatsion yarmarkalar va ko‘rgazmalarda o‘z ixtiro loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan, ilmiy-amaliy konferentsiya (tanlov)larda ma’ruza-dokladlar bilan qantashib kelayotgan, ilmiy nashrlarda tezis va maqolalar chop etgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o’n) nafar TTAning bakalavriat bosqichi va magistratura, klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi talabalari g‘olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantirish to‘lovi tayinlanadi.

Ixtirochi-innovator nominatsiyasi bo‘yicha g‘olibni aniqlashda respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalar hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

Faol sportchi talaba nominatsiyasi bo‘yicha ta’lim bosqichiga o‘qishga qirgandan boshlab umumiyligi reyting nazorati natijalari 60 ball va undan yuqori bo‘lgan, vatanparvar, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, Toshkent shahar, respublika va xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rirlarni egallagan, ommaviy sport tadbirlari va to‘garaklarini tashkillashtirishda tashabbus ko‘rsatayotgan, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi, jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini OAVlari va TTA rasmiy veb-saytlarida yoritib borayotgan, turli gazeta va jurnallarda sog‘lom turmush tarzi va sport mavzusiga oid maqolalarni chop etayotgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o’n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura, klinik ordinatura hamda doktorantura bosqichi talabalari g‘olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantirish to‘lovi tayinlanadi.

Faol sportchi talaba nominatsiyasi bo'yicha g'olibni aniqlashda respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalar hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

4. Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri stipendiyasi, Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi, TTA rektori stipendiyasi va Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar nomzodlari uchun 2-bandda belgilangan talablarga qo'shimcha ravishda o'qiyotgan bakalavriat yoki magistratura ta'lif yo'naliishiga mos mavzuda xususiy bo'lмаган ilmiy nashrlarda kamida ikkita nashr qilingan ishlar (maqola, tezis yoki asarlar)ning mavjudligi talab etiladi.

5. TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari uchun ushbu Nizomda belgilangan stipendiyadlar va nominatsiyalar miqdorlari hamda g'oliblarining soni har yili TTA Ilmiy kengashining noyabr oyidagi qarori bilan belgilanadi va keyingi yilning xarajatlar smetasiga kiritiladi.

Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar g'oliblarining sonini belgilashda har bir fakultetning 1000 (ming) nafargacha talabasi uchun 1 ta o'rinn ajratiladi.

2–bob. Tanlovlarni o'tkazish tartibi, stipendiyalar va nominatsiyalar g'oliblarini aniqlash mezonlari

6. TTA talabalari o'rtasida TTAda ta'sis etilgan nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovi har yili aprel va may oylarida o'tkaziladi.

7. TTAning bakalavriat, magistratura, klinik ordinatura va doktorantura bosqichi talabalari o'rtasida TTAda ta'sis etilgan va nomli stipendiyalar va turli nominatsiyalar tanlovini yuqori saviyada o'tkazish uchun mas'ul etib Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'lari mas'ul hisoblanadi.

